

TEXNIKA TERMINLARINING TUZILISH STRUKTURASI

M.F.Axmedova,

NavDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada terminlarning yasash strukturasi, ularning tasniflanishi haqida so'z yuritilgan. Izohli lug'atlarga kiritilgan texnika terminlarining tuzilishiga ko'ra turlari tasniflanib, sodda (sodda tub, sodda yasama), qo'shma, juft, murakkab birikmalarga ajratilgan, yasashiga ko'ra ularning morfologik, sintaktik, semantik usullari tahlil qilinib, misollar orqali izohlangan.

Kalit so'zlar: termin, texnika, tuzilish strukturasi, sodda, sodda tub, sodda yasama, qo'shma, juft, murakkab, terminlarning yasalishi, morfologik yasash, sintaktik yasash, semantik yasash.

Abstract. The article discusses the structure of the formation of terms and their classification. According to the structure of the terms of the technique included in explanatory dictionaries, the types are classified, separated into simple (simple bottom, simple build), compound, pair, complex combinations, according to the way they are made, their morphological, syntactic, semantic methods are analyzed and annotated through examples.

Keywords: term, technique, structure, soda, simple root, simple derivative, compound, pair, complex, formation of terms, morphological formation, syntactic formation, semantic formation.

Аннотация. В статье рассматривается структура образования терминов, их классификация. Типы технических терминов, включенных в пояснительные словари, классифицируются по их структуре и делятся на простые (простой корень, простая конструкция), сложные, парные, сложносоставные, а их морфологические, синтаксические и семантические методы анализируются и объясняются на примерах.

Ключевые слова: термин, техника, структура образования, простой, простой корень, простая конструкция, сложносоставной, парный, сложносоставной, образование терминов, морфологическая конструкция, синтаксическая конструкция, семантическая конструкция.

Kirish. Dunyo tilshunosligida yangi so'z hosil qilish, so'z yasash strukturasi deyarli bir-biriga o'xshash yoki yasash xususiyatlari o'zaro bir xil tizimga ega. O'zbek tilshunosligida ham so'z yasalishi va uni tizimlashtirish ma'lum darajada tadqiq qilingan va tartibga solingan. Ma'lumki, o'zbek tilida so'zlar tuzilish strukturasi ko'ra 4 guruhga bo'linadi va shu asosda tizimlashtiriladi. Ya'ni sodda, qo'shma, juft va takror so'zlar. Tilshunoslikning aktual yo'nalishlaridan biri bo'lgan terminologiya va uning lug'at tarkibini tashkil etuvchi so'z va terminlarni o'rganish va tahlil qilishda ham ayni shu tasnifga tayaniladi. Texnika terminlarining tuzilish strukturasi, yasalishi bir muncha murakkab sanaladi va shu xususiyati bilan boshqa birliklardan ajralib turadi. Terminologiyada terminlar tarkibi tasniflanganda sodda, qo'shma, juft, takror, murakkab, birikmali va tarkibli kabi turlarga bo'lingan holda guruhlanadi va, asosan, ot so'z turkumiga mansub bo'lganligi uchun muayyan sohaga oid terminlarning orasida qisqartma terminlar (abbreviaturalar) ham uchray turadi. Bu tasnif texnika terminlarining tushuncha va jarayon nomini bildirib keluvchi ayrim termin birikmalari uchun ham xos.

Adabiyotlar tahlili. Terminologiyada yasash hodisasi ancha keng va murakkab. Terminlarning yasalishi morfologik (ya'ni asosga qo'shimcha qo'shilishi bilan hosil bo'ladigan), sintaktik (qo'shma so'zlar va so'z birikmalari kabi bir, ikki, uch uzvli tarkiblardan iborat) hamda semantik usulda (ya'ni boshqa sohaga aloqador bo'lgan termin

ma'no ko'chishi asosida butunlay boshqa soha terminning nomini atab kelishi) mahsuldor va faol bo'lib, terminologik tarkibning muttasil boyib, taraqqiy etishiga xizmat qilmoqda. O'zbek tili terminlarining aksariyatini motivlangan, ya'ni so'z-terminlar (qo'shimchalar bilan yasalgan), termin-qo'shma so'z, termin-birikmalar hamda semantik (asosan metaforik) ko'chim asosida hosil qilingan terminlar tashkil qiladi. Shu bilan bir qatorda, terminlarning salmoqli qismi motivlanmagan, ya'ni o'zbek tilining o'z sodda so'zlari, o'zlashmalar, termin-kalkalar va antroponimlardan metonimik ko'chim vositasida voqealangan[3;55]

Texnikaga oid ilmiy terminlarni tadqiq qilish natijasida o'zbek terminologiyasida o'z ilmiy qarashlari va ilmiy tasniflari bilan salmoqli hissa qo'shgan tilshunos R.Doniyorov dastlab terminlarni shakliy-struktur jihatdan tahlil qiladi va tasniflaydi[7;148]. Olimga ko'ra, bir yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topgan terminlar sintaktik usulda hosil bo'lgan terminlar sanaladi. Olim tomonidan amalga oshirilgan texnika terminlarining tasnifida ayrim morfologik (ot+ot, sifatdosh+ot) va semantik (jarayon+ot) tuzilishidagi tahlillar mavjud. Bu kabi terminlar yasalishi jihatidan sintaktik usulda yasalgan terminlar sifatida, tuzilishi jihatidan esa qo'shma terminlar sifatida baholangan [3;97]. Natijada, olim terminlarning strukturaviy tasnifini ikkiga sodda va qo'shma terminlar turlariga tasniflab, tadqiq qilgan.

“O'zbek tilining izohli lug'ati” (2 tomli va 5 jildli) dan o'rin olgan, maxsus pometa bilan berilgan va berilmagan texnikaga oid terminlarni shakliy-struktur jihatdan tasniflashda birliklarning sodda, qo'shma, juft va birikma termin bo'lib keluvchi strukturasi tayanildi. Takroriy terminlar texnika terminlari orasida deyarli uchramasligi kuzatiladi.

Sodda terminlar derivatsion xususiyatlariga ko'ra o'z navbatida 2 ga bo'linadi: sodda tub va sodda yasama. Texnika terminlari asosan, ot so'z turkumiga mansub bo'lib, texnikaga oid tushuncha, predmet va jarayon otlaridan tashkil topgan. “O'zbek tilining izohli lug'ati” ikki nashrida ham bunday terminlar lug'atga kiritilib, maxsus pometa bilan berilgan texnika terminlari orasida miqdor jihatdan salmoqli o'rinni egallagan. Masalan, sodda tub terminlar: *ariqcha, diod, detal, blok, bolg'a, bobina, kran, drel, yelka, jo'va, kojux, pribor, pedal, motor*;

Sodda yasama terminlar: *bessemerlash, jo'valamoq, kesma, keskich, kuchlanish, kuchli, rostlagich, siqilish, sovitkich*.

Texnikaga oid birliklarning juda ko'p qismi o'zlashma qatlamga mansub birliklar bo'lganligi bois ham sodda tub terminlar har ikki lug'atda mahsuldor ekanligi ko'rildi. Har ikkala lug'atda morfologik usulda hosil qilingan birliklar texnika terminlari orasida anchayin faol qo'llanilgan. Ularning yasalish strukturasi o'z va o'zlashma qatlamga oid bo'lgan asosga o'zbek tiliga oid yasovchilar qo'shilishidan: *jo'valamoq, kesma, keskich, kavsharlagich, kuchlanish, kuchli, purkagich, sichqoncha, siqilish, sovitkich, sozlamov, tishlashmoq, tolali*; ruscha-baynalmilal tillarga oid bo'lgan terminlarga o'z til qatlamiga

oid qo‘shimchalar qo‘shilishidan: *boltli, bessemerlash, detektorlash, diskali, nivelirlash, vagonchi, vagrankachi* kabi hosil qilingan terminlar har ikkala qatlamda ham mahsuldor.

Muhokama va natija. Sodda yasama terminlarni tasniflash jarayonini ularning asosi o‘z qatlam va o‘zlashgan qatlamga oidligi tamoyiliga ko‘ra yana ikki guruhga ajratish mumkin:

yasalish asosi **o‘z qatlamga** oid birliklar, ular kalkalash natijasida hosil bo‘lgan va terminologik sohalarda faol qo‘llanishda bo‘lgan termin birliklar: *ariqcha, yedirmoq, sovitkich, eritkich, eritma, qalqovuch, qizdirgich, qistirma, qoliplamoq, qotishma, qochirma;*

yasalish asosi **o‘zlashgan qatlamga** oid birliklar: *balanslamoq, kavsharlagich, motorli, prujinali, payvandlamoq, svarkachi, stanoksoz, stanoksozlik, ekranlamoq.*

O‘zbek tilida texnika sohasiga oid yasama terminlarni hosil qilishda ot yasovchi qo‘shimchalar faolligi bilan boshqa turkum qo‘shimchalardan farq qiladi. Quyida izohli lug‘atlarda berilgan texnika terminlarining so‘z yasovchi qo‘shimchalari ot, sifat, fe‘l turkumlariga mansub ekanligi aniqlandi.

-chi: *armaturachi, dozatorchi, domnachi, kranchi, metallchi, motorchi, nivelirovkachi, prokatchi, svarkachi, brakchi, buldozerchi, vagonetkachi, vagonchi, videochi, vodoprovodchi, vagrankachi, ekskavatorchi, elektrchi*

-soz: *avtomobilsoz, stanoksoz,*

-shunos: *metallshunos*

-shunoslik: *metallshunoslik*

-chilik: *aviamodelchilik,*

-sozlik: *avtomobilsozlik, stanoksozlik, vagonsozlik, motorsozlik*

-gich, -kich, -qich: *isitkich, keskich, kavsharlagich, portlatgich, purkagich, rostlagich, saralagich, sovitkich, taqsimlagich, turtkich, uzgich, ulagich, changitkich, eritkich, qizdirgich, quritgich, bug‘lagich, bug‘latkich,*

-ma: *kesma, eritma, qistirma, qotishma, qochirma*

-ish: *kuchlanish*

-xona: *qozonxona;*

fe‘l yasovchi qo‘shimchalar:

-la: *balanslamoq, diskalamoq, distillamoq, jo‘valamoq, kalkalamoq, kavsharlamoq, payvandlamoq, xurushlamoq, chig‘irlamoq, shtamplamoq, burg‘ilamoq*

-lash: *avtomatlashmoq, bessemerlash, detektorlash, mexanizatsiyalashmoq, motorlashmoq, nivelirlash,*

sifat yasovchi qo‘shimchalar:

-li: *detektorli, diskali, motorli, pokrishkali, svechali, stanokli, ekranli, elektrli, elektronli*

-mas: *metallmaslar*

-ovuch: *qalqovuch*

-*simon*:

Lugʻaviy shakl yasovchi *-cha*: *ariqcha, sichqoncha, bolgʻacha*.

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da berilgan sohaga oid birliklarni yasashda jami 17 ta yasovchi va 1 ta (*-cha*) lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimcha qoʻllanilgan. Shaxs oti yasovchi *-chi*; narsa-predmet otini yasovchi *-gich, -kich, -qich*; feʼl yasovchi *-la, -lash*; sifat yasovchi *-li* qoʻshimchalari termin yasashda faol ishtirok etgan. Bu qoʻshimchalar bilan soha terminlarining oʻzlashma qatlamga oid texnika terminlarini kalkalab, izohli lugʻatdagi bir qoʻshimchaning 2 til ifodasi orqali bitta maʼnoni ifodalovchi (avtomatik-avtomatlashmoq, balansirovka-balanslamoq, metallist-metallchi kabi) terminlar takrorlanishining oldini olish va soha terminologiyasining lugʻat tarkibini oʻz qatlamga oid terminlar bilan boyitishda foydalanish soha terminologiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Sintaktik usulda yasaliib, ikki asosning qoʻshilmasidan hosil qilingan soʻzlar qoʻshma soʻzlar deyiladi va bunday soʻzlar soha terminologiyasining salmoqli qismini tashkil etadi. Ular: *aviakompas, aviatrassa, bolometr, betonqorgich, vibrototqmoq, videotexnika, gidronasos, gidroturbina, dinamometr* kabi. Bu usul bilan yasalgan sohaga oid qoʻshma soʻzlarning yasaliish modeli quyidacha:

ot+ot: aérochana, benzobak, videokasseta, gidrosamolyot, radioapparat, radioteleskop, turbogenerator, elektropayvand, elektromotor, qozonxona;

ot+feʼl: avtosugʻorgich, betonqorgich, videokuchaytirgich, changsoʻrgʻich, radioportlatgich, radiouzatkich, changitkich, bolajratgich;

Bundan tashqari, quyidagi yasaliish modellari sifatida olingan misollar “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” har ikkala nashrida ham uchramaydi lekin soha terminologiyasida ularning qoʻllanilishi juda faol, bunday birliklar sohaga oid boshqa lugʻatlarda va adabiyotlarda ifodalangan:

sifat+ot: chalaotkazgich, ravish+ot; qisqatutashuv, tezyurar; olmosh+ot: oʻziyurar, oʻziuchar, oʻziagʻdarar kabi.

Qoʻshma terminlarning yana bir yasaliish xususiyati xalqaro terminelementli birikma va ruscha-baynalmilal soʻzlarning birikuvidan hosil boʻlgan gibrid terminlardir. Gibrid terminlar XX asrning oʻrtalarida tilshunoslikning tadqiqiy rivoji shakllanayotgan davrda paydo boʻldi va shundan beri deyarli barcha ilm-fan tarmogʻining eng faol terminlari sifatida qoʻllanilmoqda. Xalqaro terminelementlar prefiksali (prepozitiv) va postfiksali (postpozitiv) koʻrinishga egadir. *-Avto, -anti, -makro, -mikro, poli-, ultra-* singari oʻzaklar; sonlarni ifodalovchi *mono-, bi-, di-, tetra-, tri-*, kabi elementlar faqat prepozitiv qoʻllanishga ega boʻlsa, *-bus, -drom, -skop, -navt, -fob, -for* kabilar asosan postpozitiv holda qoʻllanadi[4;39]. Masalan: *avianosets, avtokran, avtomashina, avtotransport, biplan, vibratsiya, vibrometr, dielektrik, radiator, radiolokator, teleskopik* kabi.

Bunday terminelementlar bugungi kun ilm-fan texnologiyasining barcha sohalarida turlicha boʻlgan yangi maʼnodagi terminlarni hosil qilishda juda faol hamda elementlar

bilan turli yangi terminlar paydo bo'lmoqda. *Avia-*, *avto-*, *gidro-*, *infra-*, *mikro-*, *makro-*, *moto-*, *radio-*, *tele-*, *ultra-*, *foto-* kabi terminelementlar ishtirokida yasalgan qo'shma terminlar o'z til imkoniyatidan kelib chiqib, o'zbek tilida qo'shma termin sifatida faol yasalish imkoniyatiga ega. Faqat bunday yasalish prepozitiv terminelementlar uchun xos, lekin *-bus*, *-drom*, *-skop*, *-navt*, *-grafiya*, *-logiya*, *-drom* kabi postpozitiv elementlar o'zbekcha so'zlar bilan qo'shma so'z hosil qilish xususiyatiga ega emas. Masalan: *avtosaroy*, *avtopoyga*, *avtosug'orgich*, *avtoy*, *vibrobolg'a*, *vibroto'qmoq*, *videokuchaytirgich*, *radiouzatkich* kabi.

Har ikkala qismi ham mustaqil ma'noda keladigan va qo'llanadigan gibrid terminlar ham bor: *gazpana*, *gazo'lchagich*, *kartoshkaqazgich*, *fenilsirka*, *elektrarra*, *videokuchaytirgich*, *changso'rg'ich*, *radioportlatgich*, *radiouzatkich*, *changitkich*, *bolajratgich* va h.k. To'ldiruvchi+to'ldirilmish tipidagi bunday komponentlarni belgisiz qo'llash va tarkibidagi kesimga *-gich* (*-kich*, *-qich*, *-g'ich*) yasovchilarining qo'shilishi ellipsis hodisasining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi va natijada, bunday birliklar o'zbek texnika terminologiyasining lug'at tarkibining boyishiga xizmat qiladi.

Juft birliklar ikki so'zning juftlanishi asosida hosil bo'ladi va bunday birliklar "O'zbek tilining izohli lug'ati" 5 tomlida quyidagilar: *Avtomat-spravochnik*, *avtomat-telefon*, *amper-soat*, *mexanik-haydovchi*.

Shuningdek, *avtomobil-kran*, *asbest-sement*, *asfalt-beton*, *blink-komparator*, *volt-amper*, *gaz-beton*, *gaz-yorug'lik trubkasi*, *gauch-val*, *gips-beton* kabi. [Politexnika lug'ati. Toshkent – 1989. B. 701] Bu kabi juft birliklar "Politexnika lug'ati"da 40 dan ortiqni tashkil qilgan ekan.

Barcha terminosistemalarda kuzatilgani kabi texnika terminlari orasida ham termin-birikmalar miqdori ustuvor. Birikma terminlar so'z birikmalarining birdan ortiq leksik birlikdan tashkil topishi natijasida hosil bo'ladi va birikma holatida qo'llanadi. Soha terminlarining bir, ikki, uch, to'rt va besh komponentli termin birikmalari mavjud.

Ikki komponentli birikma terminlar: *Avtoklav materiallari*, *avtomatik rostlash*, *avtomobil yo'li*, *gaz analizatori*, *vintli uzatma*, *vintli nasos*, *vintli konveyer*, *barabanli qozon*, *beton nasosi*, *gibrid birikma*;

Uch komponentli birikma terminlar: gibrid raketa dvigateli, *geterodinli chastota o'lchagich*, *gaz-turbinali dvigatel*, *gorizontal bolg'alash mashinasi*, *dvigatelning gabarit quvvati*, *domna havo qizdirgichi*;

To'rt komponentli birikma terminlar: blokka ishlov berish agregati, *bug' turbinali elektr stansiya*, *gaz razryadli hisoblash lampasi*, *gips-sement putsolanli bog'lovchilar*;

Besh komponentli birikma terminlar: ikki taktli ichki yonuv dvigateli.

Ammo negadir "O'zbek tilining izohli lug'ati" har ikkala nashrida ham bunday termin birikmalarga kam o'rin berilgan va ular lug'atda ikki komponentli birikmalar bilan kifoyalangan. Izohli lug'atda bunday birikma termin ikkita va ularga pometa belgisi

qo'yilmagan, maqola izohiga tayanib ularni termin birikma sifatida olish mumkin: *bort mexanik, bort provodnik*.

Semantik yasash usuli bugungi o'zbek tili ilmiy-texnikaviy terminologiyasining boyib borishiga xizmat qilmoqda hamda soha terminologiyasida bu jarayon tadqiqi rivojlanishda davom etmoqda. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham bunday yasash bilan hosil qilingan terminlar keltirilgan.

Ariqcha 1 *Kichkina ariq jilg'acha 2 tex. Turli detallarning ariqsimon o'yilgan yeri. Porshen halqasining ariqchasi. 2 tomli O'TIL, 1-tom, 54-bet.*

Ariqcha 1 *Kichkina ariq jilg'a (cha) 2 tex. Turli detallarning ariqsimon o'yilgan yeri. Porshen halqasining ariqchasi. 5 jildli O'TIL, 1-jild, 98-bet.*

Bo'yin 1 (3-sh. birl. bo'yni) **1** *Gavdaning bosh bilan tanani biriktiruvchi qismi. 2 Ba'zi asboblarning ingichka uzunchoq qismi; bo'g'iz. 3 tex. O'q, val va shu k. podshipnikka o'rnatiladigan qismi. Val bo'yni. 2 tomli O'TIL, 1-tom, 159-bet.*

Bo'yin 1 (3-sh. birl. bo'yni) **1** *Odam va umurtqali hayvonlar gavdasining bosh bilan tanani biriktiruvchi qismi. 2 Ba'zi asboblarning ingichka uzunchoq qismi; bo'g'iz. 3 tex. O'q, val va shu k. podshipnikka o'rnatiladigan qismi. Val bo'yni. 5 jildli O'TIL, 1-jild, 402-bet.*

Barmoq, yedirmoq, yelka, jo'va, jo'valamoq, zanjir, kalit, kalkalamoq, kesma, kuchlanish, kuchli, magazin, magazinli, machta, prokat, prokatchi, sichqoncha, siqilish, sug'ormoq, tana, taroq, toj, tolali, chiviq, chok, shalola, yakor, o'zak, o'rish, qozon, qozonxona, qoliplamoq, qotishma, qochirma, quyish terminlar O'TIL ning ikkala nashrida bir xil tartibda keltirilgan va izohlangan.

Xulosa. Bu kabi semantik usulda yasalgan terminlar lug'atlarda ham, ilmiy-texnik darslik va adabiyotlarda ham birikma holda kelgandagina texnika termini ekanligi anglashilishi va shundan keyingina sohaga taalluqli tushunchani nomlab kelishini hisobga olganda, soha terminologiyasi lug'at tarkibini boyitishda birikma terminlar tashkil etish, semantik kalkalar bir necha uzvli birikma terminlar bilan birgalikda qo'llangandagina ma'nosi anglashilishi sintaktik usuldagi birikma terminlarni ko'proq hosil qilish va ulardan foydalanishni taqozo etadi hamda tushunchaning tez va aniq tushunilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomli.– Moskva: "Rus tili" nashriyoti, 1981.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli.– Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2020.
3. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – T: 2019.
4. Madvaliyev A. Izohli lug'atda xalqaro terminelementli so'z va terminlarga munosabat masalasi // O'zbek tili va adabiyoti, 2009, 2-son, 38-43 betlar.
5. Инструкция для составления "Словаря современного русского литературного языка". – М.: 1958. – С.43.
6. Politexnika lug'ati. – Toshkent: "O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi" 1989.
7. Mavlyanov S.J. "O'zbek tili diplomatik terminlari": Filol.fan.bo'yicha fals. dokt....diss. – Toshkent, 2022. – B. 148.